

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12.T.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

TURSIMURATOV SAPARNIYAZ SALAUATOVICH

**TOLALI OPTIK ALOQA LINIYALARINING ISHONCHLILIGINI
BAHOLASH MODEL VA ALGORITMLARI (QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va
qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Tursimuratov Saparniyaz Salauatovich

Tolali optik aloqa liniyalarining ishonchliligini baholash modeli va algoritmlari
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida) 3

Турсымуратов Сапарнияз Салауатович

Модель и алгоритмы оценки надежности волоконно-оптических линий связи
(на примере Республики Каракалпакстан)..... 21

Tursimuratov Saparniyaz Salauatovich

Model and algorithms for assessing the reliability of fiber-optic communication lines
(based on the case of the Republic of Karakalpakstan)39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12.T.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

TURSIMURATOV SAPARNIYAZ SALAUATOVICH

**TOLALI OPTIK ALOQA LINIYALARINING ISHONCHLILIGINI
BAHOLASH MODEL VA ALGORITMLARI (QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va
qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T6199 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Isayev Rixsi Isoxo'jayevich texnika fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	Amirsaidov Ulugbek Baburovich texnika fanlari doktori, professor Abdullayev Mirjamol Mirkomilovich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.09/2025.27.12.T.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "3" oktabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-15; e-mail: info@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (447 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "24" sentabrda tarqatildi.
(2026-yil "24" sentabr 18 - raqamli reestr bayonnomasi).

B.Sh. Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

M.S. Saitkamolov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlar doktori, dotsent

K.A. Tashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tolali optik aloqa liniyalarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonida ularning ishonchliligini ta'minlash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Sababi global telekommunikatsiya infratuzilmasi va mamlakatlarning aloqa tizimlari va tarmoqlarida asosiy katta hajmdagi va yuqori tezlikda axborotlarni almashish muhiti sifatida tolali optik aloqa liniyalari qo'llaniladi. Ma'lumki, yuqori tezlikdagi axborot almashuvchi tolali optik aloqa liniyalari uchun ishonchlilikni baholovchi ko'rsatkich tayyorgarlik koeffitsienti 0,999 dan kam bo'lmasligi talab etiladi. Ushbu ko'rsatkichning hatto kichik miqdorda pasayishi ham aloqa xizmatlari sifatining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Tadqiqotlar tayyorgarlik koeffitsientining 0,01–0,025 ga kamayishi xizmat sifati ko'rsatkichlarining 8–20 % pasayishiga sabab bo'lishini ko'rsatmoqda¹. Hozirgi kunda ekspluatatsiyadagi ayrim tolali optik aloqa liniyalari elementlari normativ xizmat muddati chegarasiga yaqinlashib, texnik ishonchlilikning pasayishi hamda nosozliklar ehtimolining ortishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda tolali optik aloqa liniyalarining ekspluatatsion holatini ilmiy-amaliy baholash, shikastlanishlarni tezkor aniqlash va ishonchlilik ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish telekommunikatsiya tizimlarining barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda tolali optik aloqa liniyalarining ishonchliligini ekspluatatsiya davrida olingan statistik va monitoring tizimidan olingan dastlabki ma'lumotlarni qayta ishlash orqali ishonchlilikni baholashga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. tolali optik aloqa liniyalarining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini hududning iqlim sharoiti, geologik xususiyatlari va ekspluatatsion omillar bilan bog'liq holda baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ekspluatatsion holatni aniqlash va baholashda doimiy monitoring tizimlari, diagnostika va nazorat usullari keng tatbiq etilmoqda. Jumladan, impulsli optik reflektometriya qurilmalari asosida olinadigan reflektogrammlar tolali optik aloqa liniyalaridagi nuqsonlarni masofadan aniqlash imkonini beradi va amaliyotda keng qo'llaniladi. Mazkur holatlar tolali optik aloqa liniyalarida shikastlanishlarni tezkor aniqlash, ularni aniq lokalizatsiyalash va qayta tiklash vaqtini qisqartirishga qaratilgan model va algoritmlarni ishlab chiqishni telekommunikatsiya sohasidagi dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlarini qurish, modernizatsiya qilish, hamda ma'lumotlar uzatish tarmoqlarining o'tkazuvchanligini oshirishga ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida raqamli infratuzilmaning barqarorligi va ishonchliligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasining 2-bob 1-bandida tolali optik aloqa liniyalarining uzluksiz ishlashi uchun ularning ishonchliligini ta'minlash va oshirish ustuvor vazifa sifatida

¹ <https://www.fcc.gov/communications-security-reliability-and-interoperability-council-ix>

belgilangan hamda tolali optik aloqa liniyalarining umumiy uzunligini 250 ming kilometrdan oshirish vazifasi qo'yilgan². Tolali optik aloqa liniyalarining ishonchliligini baholash uchun model va algoritmlarni ishlab chiqish telekommunikatsiya xizmatlari sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-dekabrda "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi O'RQ-1015-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2022-yil 28-yanvarda "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 699-son Qarori, Raqamli texnologiyalar vazirligining 2026-yil 26-yanvarda "Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 287-mh-son buyrug'i hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni muayyan darajada amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tolali optik aloqa liniyalarining ishonchliligini baholash muammolari jahon ilmiy hamjamiyatida turli yondashuvlar bilan tadqiq etilgan. Xususan, optik tolalarning mexanik ta'sirlarga shidamliligi va uzoq muddatli degradatsiya jarayonlarini tadqiq qilish bo'yicha M. Matthewson, W. Griffioen, M. Barnoski, X. Gu, M. Sablatashlar tomonidan fundamental tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular asosan optik tolalarning eskirish mexanizmlari va mustahkamlik ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan. Optik kabellarni ishlab chiqarish texnologiyasi, ishonchlilik parametrlarini optimallashtirish va ekspluatatsion omillarning ta'sirini baholash masalalari G. Glaesemann, R. Castilone, T. Hanson, D. Walter hamda K. Dallas, B. Zimmermann, H. Hanafusa, M. Fukudalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Optik tolalarda signal so'nishi, reflektometrik diagnostika va shikastlanishlarni aniqlash algoritmlarini takomillashtirish yo'nalishida A. Nakamura, K. Okamoto, Y. Koshikiya, T. Manabe, K. Xu, Ch. Yuan va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

MDH davlatlari olimlari V.N. Gordienko, E. Alekseev, V. Kruxmalev, M. Boev, I. Grodnev, E. Protonov, Yu. Larin va boshqalar tomonidan esa optik aloqa tarmoqlarining ekspluatatsion ishonchliligini baholash, nosozliklarni aniqlash va matematik modellashtirish masalalari ishlab chiqilgan.

Respublikamiz olimlari R. I. Isayev, I.R. Berganov, T.N. Nishonboyev, U.B. Amirsaidov, D.A. Davronbekov, R.X. Djuraev, Sh.Yu. Djabbarov va boshqalar tomonidan telekommunikatsiya tarmoqlarining ishonchlilik ko'rsatkichlarini

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmoni

oshirish, monitoring tizimlarini takomillashtirish hamda diagnostika usullarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, tolali optik aloqa liniyalarining ekspluatatsiyasida ishonchlilikni monitoring tizimlaridan olingan dastlabki ma'lumotlar yordamida baholash, ayniqsa keskin kontinental iqlim sharoitida ekspluatatsiyadagi tolali optik aloqa liniyalari ishonchliligini baholash modeli, algoritmlari va ularni ishonchliligini baholashning analitik ifodalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbqiq qilish muammolari batafsil o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti FL-8824063289-R5 "Telekommunikatsion optik tola asosida kombinatsiyalangan datchiklarni yaratish tamoyillari" (2025-2027) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tolali optik aloqa liniyalarining diagnostika va monitoring tizimlaridan olingan dastlabki ma'lumotlarni qayta ishlash orqali ekspluatatsion ishonchliligini baholash modeli va algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

tolali optik aloqa liniyalarining ishonchliligini baholash va ekspluatatsion holatini nazorat qilish monitoring tizimlarini tashkil etish usullarini tahlil qilish;

optik reflektometr moduli yordamida monitoring qilinadigan tolali optik aloqa liniyalarining ekspluatatsion ishonchliligini shikastlanishlarni aniqlash va ularni lokalizatsiyalash vaqtini qisqartirish orqali statistik modellarga asoslangan ishonchlilikni baholash usulini takomillashtirish;

tolali optik aloqa liniyalarining texnik ekspluatatsiyasi jarayonida olingan reflektogrammalarni qayta ishlash orqali liniyadagi hodisalarni aniqlash hamda shikastlanish joyini lokalizatsiyalash aniqligini oshiruvchi matematik modelni ishlab chiqish;

reflektogrammalarni qayta ishlash yordamida liniyadagi hodisalarni avtomatik aniqlash algoritmini takomillashtirish;

reflektogrammalarni qayta ishlash orqali shikastlanish joyini lokalizatsiyalash aniqligini oshiruvchi algoritmni takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida magistral optik transport tarmoqlarining to'g'ridan-to'g'ri yerga yotqizilgan tolali optik aloqa liniyalari olingan.

Tadqiqotning predmetini tolali optik aloqa liniyalarining ekspluatatsiyasi davrida statistik hamda o'lchov-nazorat qurilmalari yordamida olingan dastlabki ma'lumotlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida optik aloqa nazariyasi, matematik tahlil va modellashtirish, raqamli signalni qayta ishlash, konvolyutsiya va korrelyatsiya usullari, diskret va uzluksiz Veyvlet tahlili, statistik tahlil va ehtimollik nazariyasi, shuningdek, reflektogrammalarini eksperimental tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tolali optik aloqa liniyalarini optik reflektometr moduli yordamida monitoring va diagnostika qilish jarayonida olingan reflektogrammalarni qayta ishlash asosida

ekspluatatsion holatni baholash va qayta tiklash vaqtini kamaytirish orqali ishonchlilikni oshirish imkonini beruvchi usul takomillashtirilgan;

reflektogrammalarni qayta ishlashda konvolyutsiya amaliga asoslangan hodisalarni aniqlash va shikastlanish joyini lokalizatsiyalash aniqligini oshirish imkonini beruvchi analitik model ishlab chiqilgan;

Veyvlet almashtirishlari yordamida reflektogrammalarni qayta ishlashda shovqinlarni filtrlash asosida hodisalarni avtomatik aniqlash orqali tolali optik aloqa liniyasining ekspluatatsion holatini baholash imkonini beruvchi algoritmi takomillashtirilgan;

Veyvlet almashtirishlari yordamida reflektogrammalarni qayta ishlashda shikastlanish joyini mashtablash asosida lokalizatsiyalash aniqligini oshirish orqali qayta tiklash vaqtini kamaytirish imkonini beruvchi algoritmi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tolali optik aloqa liniyalari monitoring tizimi yordamida olingan reflektogrammalardagi xarakterli o'zgarishlarni tahlil qilish, hodisalarni avtomatik ravishda ajratib olish hamda shikastlanish nuqtasining koordinatasini aniqlash imkonini beruvchi dasturiy vosita ishlab chiqilgan;

tolali optik aloqa liniyalarining ekspluatatsiyasi jarayonida olingan shikastlanishlar bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida ishonchlilik ko'rsatkichlarini baholash imkonini beruvchi dasturiy vosita ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'yilgan muammoning matematik jihatdan aniq ifodalanishi, taklif etilgan model va algoritmlarning boshqa zamonaviy usullar bilan miqdoriy hamda sifat jihatidan taqqoslanishi orqali olingan aniq va samarali natijalar, dasturiy mahsulotning ishlab chiqilishi, shuningdek, amaliy natijalarni tasdiqlovchi joriy etilganlik to'g'risidagi dalolatnomalar bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, keskin kontinental iqlim sharoitida tolali optik aloqa liniyalarining ishonchliligini baholash uchun reflektogramma signallarini konvolyutsiya asosida qayta ishlashga yo'naltirilgan matematik model, reflektogrammalardagi shovqin ta'sirini kamaytirish, hodisalarni aniqlash hamda shikastlanish joylarini lokalizatsiyalash aniqligini oshirishga mo'ljallangan algoritmlar va optik reflektometr moduli yordamida olingan monitoring tizimi ma'lumotlari asosida tolali optik aloqa liniyalarining ekspluatatsion ishonchliligini baholashning takomillashtirilgan usuli ishlab chiqilganligi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tolali optik aloqa liniyalarida shikastlanishlarni lokalizatsiyalash aniqligini oshirish hamda qayta tiklash jarayonlarining tezkorligini ta'minlash imkonini beruvchi model va algoritmlarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tolali optik aloqa liniyalarining ekspluatatsion holati va ishonchliligini baholash modeli va algoritmlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

tolali optik aloqa liniyalarini optik reflektometr moduli yordamida monitoring va diagnostika qilish jarayonida olingan reflektogrammalarni qayta ishlash asosida ekspluatatsion holatni baholash va qayta tiklash vaqtini kamaytirish orqali

ishonchlilikni oshirish imkonini beruvchi takomillashtirilgan usul “O‘zbektelekom” AK Shimoliy filialida joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 4-dekabrda 33-8/9092-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, shikastlanishlarni aniqlash, lokalizatsiyalash va nosozliklarni qayta tiklash vaqtini qisqartirish hisobiga tolali optik aloqa liniyalarining ekspluatatsion ishonchlilik ko‘rsatkichi, ya’ni tayyorgarlik koeffitsiyentini o‘rtacha 6 % ga oshirish imkonini bergan;

reflektogrammalarni qayta ishlash yordamida konvolyutsiya amaliga asoslangan hodisalarni aniqlash hamda shikastlanish joyini lokalizatsiyalash aniqligini oshirish imkonini beruvchi analitik model Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi “UNCON.UZ” MChJda joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 4-dekabrda 33-8/9092-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tolali optik aloqa liniyalarining ishonchliligini hamda ularning ekspluatatsion samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan model amalda bo‘lgan me‘yoriy hujjatlarda foydalanish va takomillashtirish imkonini bergan;

Veyvlet almashtirishlari yordamida reflektogrammalarni qayta ishlashda shovqinlarni filtrlash asosida hodisalarni avtomatik aniqlash orqali tolali optik aloqa liniyasining ekspluatatsion holatini baholash imkonini beruvchi takomillashtirilgan algoritm “O‘zbektelekom” AK Shimoliy filialida joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 4-dekabrda 33-8/9092-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tolali optik aloqa liniyalarida hodisalar, anomal nuqtalar va shikastlanishlarni aniqlash samaradorligini 14 % ga oshirish imkonini bergan;

Veyvlet almashtirishlari yordamida reflektogrammalarni qayta ishlashda shikastlanish joyini mashtablash asosida lokalizatsiyalash aniqligini oshirish orqali qayta tiklash vaqtini kamaytirish imkonini beruvchi takomillashtirilgan algoritm “O‘zbektelekom” AK Shimoliy filialida joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 4-dekabrda 33-8/9092-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, shikastlanish joylarini lokalizatsiyalash aniqligini 10 % ga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 22 ta ilmiy ishlar, ulardan 9 ta ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan 2 ta xorijiy, 7 ta respublika miqyosidagi jurnallarda chop etilgan, hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd etish to‘g‘risidagi guvohnomalar olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning

maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish holati, eʼlon qilingan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tolali optik aloqa liniyalarining ishonchliligini baholash usullari tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida tolali optik aloqa liniyalarining (TOAL) tuzilishi, parametrlari va xarakteristikalar, xalqaro standartlar talablari, shuningdek keskin kontinental iqlim sharoitida ekspluatatsiya omillarining kabel elementlariga taʼsiri hamda optik reflektometr qurilmasi (OTDR) yordamida monitoringi va veyvlet tahlilga tayangan diagnostika yondashuvlari tahlil qilingan, masalaning qoʻyilishi bayon etilgan.

TOAL ishonchliligini oshirish masalasi, amaliy ekspluatatsiya jarayonida liniyaning ishchi holatda boʻlish ehtimolini maksimal darajaga yetkazish hamda nosozlik yuzaga kelganda uni tiklashga ketadigan umumiy vaqtni minimal qiymatga keltirish zarurati bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan optimallashtirish masalasi quyidagicha qoʻyiladi

$$K_t \rightarrow \max, \quad (1)$$

$$t_{q.t.} = \sum_{j=1}^M t_j \rightarrow \min, \quad (2)$$

bu yerda K_t – TOALning tayyorgarlik koeffitsienti (yaʼni tasodifiy vaqt momentida tizimning ishchi holatda boʻlish ehtimolini ifodalovchi integral koʻrsatkich), t_j – j -nosozlikni bartaraf etish (qayta tiklash) uchun sarflangan vaqt, M – kuzatuv davrida qayd etilgan nosozliklar soni.

TOAL ishonchliligini baholashda monitoringdan olinadigan maʼlumotlar hamda reflektogramma signallarining raqamli tahlili asosiy axborot manbai boʻlib xizmat qiladi. Shu sababli liniyaning ishonchlilik koʻrsatkichi monitoring va signal tahlili natijalariga bogʻliq holda funksional koʻrinishda ifodalanadi

$$R = f(W(a, b), y(t)), \quad (3)$$

bu yerda R – TOAL ishonchlilik koʻrsatkichi, $W(a, b)$ – reflektogramma signallarining veyvlet tahlili natijasida hosil boʻladigan koeffitsientlar (masshtab a va siljitish b parametrlari bilan), $y(t)$ – monitoring jarayonida oʻlchanadigan optik signal quvvati, yoʻqotish va soʻnish parametrlari ketma-ketligi. Vevelet almashtirishlari yordamida koʻp masshtabli tahlil signal tarkibidagi lokal oʻzgarishlarni aniqlashga imkon beragani uchun linyadagi signal quvvatining kichik oʻzgarishi va degradatsiya jarayonlarini erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

TOALning tayyorlik koeffitsienti tizimning ishlash va tiklash intervallari nisbatiga asoslanadi hamda kuzatuv davri boʻyicha quyidagicha aniqlanadi

$$K_t = \frac{\sum_{i=1}^N t_i}{\sum_{i=1}^N t_i + \sum_{j=1}^M t_j}, \quad (4)$$

bu yerda t_i – i -ishlash intervalining davomiyligi (liniya ishlash holatida boʻlgan vaqt), t_j – nosozlikdan keyingi qayta tiklash vaqti, Mazkur nisbat shuni anglatadiki,

tiklashga ketadigan vaqtlar yig'indisi qancha kichik bo'lsa, K_t niqng qiymati shuncha yuqori bo'ladi.

Tiklash jarayonining davomiyligi bir nechta tarkibiy vaqtlar yig'indisi sifatida qaraladi, chunki amaliy sharoitda tiklash faqat ta'mirlashdan iborat emas, balki aniqlash, bartaraf etish, tekshirish hamda tashkiliy kechikishlarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun tiklash vaqti quyidagicha dekompozitsiya qilinadi

$$t_j = t_q + t_{b.e.} + t_{tek.} + t_{tex.k.}, \quad (5)$$

bu yerda t_q – nosozlikni aniqlash (qidirish) vaqti, $t_{b.e.}$ – nosozlikni bartaraf etish vaqti, $t_{tek.}$ – liniya funksionalligini tekshirish vaqti, $t_{tex.k.}$ – texnik va tashkiliy kechikishlar (brigada yetib kelishi, ruxsatnomalar, logistika, ehtiyot qismlar va boshqalar).

Monitoring va intellektual tahlil tizimi joriy etilganda tiklash davomiyligi sezilarli darajada qisqarishi mumkin, chunki nosozlikni aniqlash jarayoni avtomatlashtiriladi, joylashuv aniqligi oshadi va harakatlar ketma-ketligi optimallashtiriladi. Buni matematik jihatdan hisobga olish uchun optimallashtirilgan kutilayotgan tiklash vaqti ehtimollik modeli asosida quyidagicha beriladi

$$t'_j = (1 - P)t_j + P(t_a + t_t), \quad (6)$$

bu yerda t'_j - monitoring tizmi mavjud sharoitda kutilayotgan (optimallashtirilgan) qayta tiklash vaqti, P – nosozlikni avtomatik aniqlash ehtimolligi, t_a – shikastlanishni avtomatik aniqlash vaqti, t_t – shikastlanishni avtomatik toppish vaqti. Shu holatda tayyorlik koeffitsienti ham monitoring ta'sirini bevosita aks ettiradi va quyidagicha yoziladi

$$K_t = \frac{\sum_{i=1}^N t_i}{\sum_{i=1}^N t_i + \sum_{j=1}^M t'_j}, \quad (7)$$

Demak, TOAL ishonchliligini oshirishning formal maqsadi qayta tiklash vaqtini minimallashtirish orqali kompleks ishonchlilik ko'rsatkichi bo'lgan tayorgarlik koeffitsientini maksimal darajaga yetkazishdan iborat bo'lib, bunga monitoring tizimidan olingan dastlabki ma'lumotlari reflektogrammalarni veyvlet almashtirishlari yordamida tezkor qayta tahlil qilish hamda intellektual qarorlar qabul qilish algoritmlarini joriy qilish orqali erishiladi.

Dissertatsiyaning **“Tolali optik aloqa tarmoqlarini monitoring qilish tizimlari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tolali optik aloqa tarmoqlarini monitoring qilish tizimlarini tashkil etish tamoyillari, ularning arxitekturasini va asosiy funksional elementlari tahlil qilingan. Zamonaviy yuqori tezlikli DWDM optik tarmoqlarda uzatish sifati ko'rsatkichlariga qo'yiladigan talablarning ortishi tarmoq holatini real vaqtga yaqin rejimda uzluksiz nazorat qilish zarurligini keltirib chiqarishi asoslangan. Monitoring tizimlarining tarmoq nosozliklarini erta aniqlash, avariya holatlarining oldini olish va ekspluatatsiya samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Shuningdek, optik ko'rsatkichlarni monitoring qilish (OPM) texnologiyasi hamda OTDR asosidagi nazorat usullarining ishlash prinsiplari ko'rib chiqilgan. Optik signal quvvati, OSNR, kanal to'liq uzunligi va Q-koeffitsient kabi


parametrlarni monitoring qilish orqali tolali optik aloqa liniyalarida yuzaga keladigan soʻnishlar, shikastlanishlar va degradatsiya jarayonlarini dastlabki bosqichlarda aniqlash imkoniyatlari tahlil qilingan.

1-jadval

Optik aloqa tarmoqlarida monitoring qilinadigan asosiy parametrlar va ularning son qiymatlari (ITU-T G.697)

Optik parametr	Oʻlchov birligi	Qiymatlar diapazoni
Kanal quvvati	dBm	-25 ... +5 dBm
Umumiy quvvat	dBm	-10 ... +20 dBm
OSNR	dB	15 ... 30 dB
Kanal toʻlqin uzunligi	nm	1528,77 ... 1565,50 nm
Q-koeffitsient	dB	6 ... 20 dB

Optik transport tarmoqlarida monitoring usullari signal sifati va uskunaning ishlash holatini baholashda muhim oʻrin tutadi. ITU tavsiyalariga koʻra, monitoring yondashuvlari bir nechta guruhlarga ajratiladi (1-rasm) va har bir guruhning oʻziga xos afzallik hamda cheklavlari mavjud.



1-rasm. Optik transport tarmoqlarida monitoring usullari

2-jadvalda tolali optik transport tarmoqlarida qoʻllaniladigan monitoringi usullari, ularning nazorat qilinadigan parametrlar va son qiymatlari berilgan.


2-jadval

Tolali optik transport tarmoqlarida monitoringi usullari tahlili

Monitoring usuli	Asosiy parametr	Tezlik diapazoni	Son qiymati
Vaqt sohasi	BER	≤ 10 Gbit/s	$BER \approx 10^{-9}$
Chastota sohasi	Kanal quvvati	10–400 Gbit/s	-25 ... +5 dBm
Uskuna monitoringi	Lazer harorati	Barcha	20–70 °C
OTDR asosida	Soʻnish/masofa	Barcha	± 1 –5 m
DSP	OSNR	$\geq 40/100$ Gbit/s	≥ 20 –25 dB
Ichki monitoring	Quvvat ogʻishi	Barcha	± 1 dB
Tashqi monitoring	OSNR aniqligi	Barcha	± 0.5 dB

2-rasmda WDM texnologiyasi asosida ishlovchi uzatish tizimining tipik segmenti va undagi tashqi monitoring uskunalarining joylashuvi koʻrsatilgan. Tizim ikki yoʻnalishli optik uzatish kanalidan iborat boʻlib, har bir yoʻnalishda uzatish (Tx) va qabul qilish (Rx) interfeyslari mavjud. Kanallar OM (Optik Multipleksor) orqali birlashtirilib, uzatish liniyasiga yuboriladi. Har bir tarmoq boʻgʻinida ikki bosqichli


liniya kuchaytirgichi o'rnatilgan bo'lib, u quvvat (B) va dastlabki kuchaytirgich (P) modullaridan tashkil topgan. Ushbu kuchaytirgichlar orasida DCM (dispersion kompensatsiya moduli) joylashgan bo'lib, u impulslarning cho'zilishini kamaytiradi va signal shaklini saqlab qoladi.



2-rasm. DWDM tarmoq segmentlarida tashqi monitoring uskunalarining joylashuvi

Diagrammadagi qizil nuqtalar tarmoqda tashqi monitoringni amalga oshirish mumkin bo'lgan joylarni bildiradi. Bu nuqtalarda OTDR yoki boshqa tashqi optik monitoring uskunalari ulanib, signalning orqaga qaytgan komponentasi (Reley yoki Frenel refleksi) orqali optik liniyaning holati nazorat qilinadi. Monitoring nuqtalari odatda quyidagi segmentlarda joylashadi: OM va quvvat kuchaytirgich orasida — uzatish chiqish quvvatini nazorat qilish uchun; har bir liniya kuchaytirgichi chiqishida — signalning yo'qotishlari va kuchaytirish darajasini o'lchash uchun; DCM moduli oldi va ortida — dispersiya kompensatsiyasi samaradorligini aniqlash uchun; Qabul qilish blokidan oldin (OD) — yakuniy optik quvvat, OSNR va Q-koeffitsientni tahlil qilish uchun.

Amaliyotda TOALni monitoring qilishda vaqt sohasida ishlaydigan optik reflektometrlar (OTDR) keng qo'llaniladi. Bunday reflektometrning soddalashtirilgan tuzilish sxemasi 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. Vaqt sohasida ishlaydigan optik reflektometrning strukturaviy sxemasi

Bu yerda: 1- zondlovchi impuls generatori (GI); 2- optik nurlanish manbai (lazer diod – LD); 3- optik tarmoqlagich – OTr; 4-optik ulagich – OU; 5-sinovdagi TOAL; 6-fotoqabulqilgich qurilmasi (FD); 7- boshqarish va matematik ishlov berish bloki – BMIB; 7- aks ettirish qurilmasi AEQ.

TOALning ishonchliligini baholash uchun taklif etilgan takomillashtirilgan usul OTDR reflektogrammalarini matematik qayta ishlash, hodisalarni avtomatik

aniqlash va statistik tahlil natijalarini birlashtirishga asoslangan (4-rasm). Usulning asosiy maqsadi optik liniyada yuzaga kelayotgan degradatsiya va shikastlanishlarni erta aniqlash hamda ularning ishonchlilik ko'rsatkichlariga ta'sirini baholashdan iborat.



4-rasm. TOAL ekspluatatsion holati va ishonchliligini baholash uchun ishlab chiqilgan takomillashtirilgan usuli

Taklif etilgan usulning yangiligi shundaki, unda reflektogramma signalini oddiy vizual tahlil qilish o'rniga matematik modellashtirish, veyvlet tahlili va statistik baholash usullari kompleks qo'llaniladi.

Dissertatsiyaning **“Tolali optik aloqa liniyalarida hodisalarni aniqlash va lokalizatsiyalash modeli va algoritmlari”** deb nomlangan uchinchi bobida TOAL holatini baholash hamda yuzaga keladigan shikastlanishlarni aniqlash va ularning joylashuvini aniqlashtirishga mo'ljallangan monitoringga asoslangan model va algoritmlar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda OTDR yordamida olingan reflektogrammalar matematik qayta ishlanib, shovqindan tozalash uchun veyvlet almashtirishlar, hodisalarni aniqlash va lokalizatsiya aniqligini oshirish uchun esa konvolyutsion filtratsiya va diskret interpolatsiya qo'llanilgan.

Optik signalni qayta ishlash jarayoni BMIB blokida amalga oshiriladi. Optik signalni zondlash va reflektogrammani hosil qilish matematik modeli, optik tolaning yaqin uchida o'lchanadigan teskari oqim quvvatini teskari sochilgan oqim quvvatlari (Reley va Frenel akslanishlari) $s_1(t)$ va $s_2(t)$, qaytgan oqim $f(t)$ va xalaqit quvvati yig'indisi $v(t)$ ko'rinishida ifodalash mumkin.

$$y(t) = f(t) + s_1(t) + s_2(t) + v(t). \quad (8)$$

OTDR o'lchov natijalari odatda SOR formatda saqlanadi. SOR fayl reflektogramma amplituda profili bilan birga o'lchov parametrlari va metama'lumotlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda reflektogramma qiymatlari SOR formatdan ajratilib, matematik tahlil uchun qulay bo'lgan CSV ko'rinishiga o'tkazildi. Konvertatsiyadan so'ng reflektogramma diskret signal sifatida qaraldi

$$y[k], k = 0, 1, \dots, N - 1. \quad (9)$$


TOAL reflektogrammlarida shikastlanishlarni aniqlash va lokalizatsiyalash uchun konvolyutsiya va veyvlet asosidagi diskret qayta ishlash modeli taklif etildi. OTDR signali konvolyutsion kuzatuv modeli bilan ifodalanadi

$$y[k] = (b[k] + s_1[k] + s_2[k]) * g[k] + n[k], \quad (10)$$

bu yerda $b[k]$ — Reley sochilish fon komponenti, $s_1[k]$ — yo‘qotishli hodisalar, $s_2[k]$ — akslanish hodisalar, $g[k]$ — OTDR impuls javobi, $n[k]$ — additiv shovqin $*$ — konvolyutsiya amalini bildiradi.

Mazkur model reflektogrammaning fizik shakllanish jarayonini to‘liq ifodalaydi: foydali signal fon komponenti va hodisalar yig‘indisidan iborat bo‘lib, u o‘lchov tizimining impuls javobi bilan konvolyutsiyalanadi hamda shovqin bilan buziladi. Taklif etilgan yondashuvda avval reflektogrammadan fon komponenti ajratib olinadi, so‘ng konvolyutsion filtratsiya yordamida akslanish va yo‘qotishli hodisalar aniqlanadi. Shovqin ta‘sirini kamaytirish uchun diskret veyvlet almashtirish asosida ko‘p masshtabli filtrlash qo‘llanildi. Hodisalar koordinatasi esa maksimum atrofida interpolatsiya orqali aniqlashtirildi. Natijada konvolyutsion filtratsiya va veyvlet asosidagi shovqindan tozalashni birgalikda qo‘llash reflektogrammlarda shikastlanishlarni ishonchli aniqlash hamda ularning joylashuvini yuqori aniqlikda baholash imkonini berdi. Taklif etilgan matematik model TOAL monitoring tizimlarida amaliy qo‘llash uchun samarali hisoblanadi.

Reflektogrammlarda hodisalarni avtomatik aniqlash algoritmi (5-rasm) OTDR reflektogrammlarida yuzaga keladigan akslanish va yo‘qotishli hodisalarni inson ishtirokisiz aniqlashga mo‘ljallangan.




5-rasm. Reflektogrammlarda hodisalarni avtomatik aniqlash algoritmi blok-sxemasi

Algoritm reflektogrammaning konvolyutsion modeli asosida fon trendini kompensatsiya qiladi, shovqinni veyvlet denoising orqali kamaytiradi hamda

konvolyutsion filtrlar va adaptiv thresholdlar yordamida hodisalarni ishonchli tarzda aniqlaydi.


Shikastlangan joylarni yuqori aniqlikda lokalizatsiyalash algoritmi (6-rasm) avtomatik aniqlangan hodisalar asosida shikastlanish joyining masofa bo'yicha koordinatasini diskretlash qadamidan yuqori aniqlikda baholashni ta'minlaydi. Algoritm deteksiya signalining maksimumi atrofida sub-diskret interpolatsiya qo'llab, shikastlanish koordinatasini aniqlashtiradi va lokalizatsiya xatosini sezilarli darajada kamaytiradi.



6-rasm. Shikastlanish joyi lokalizatsiyasi aniqligini oshirish algoritmi blok-sxemasi


Taklif etilgan algoritmlar reflektogrammalarda hodisalarni avtomatik aniqlash va shikastlangan joylarni yuqori aniqlikda lokalizatsiyalash imkonini berib, TOAL ekspluatatsion ishonchliligini oshiradi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning amaliy natijalari va ular asosida tolali optik aloqa liynasi ishonchliligini baholash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Qo'ng'iroq–Mo'ynoq yo'nalishida joylashgan 98,7 km magistral TOAL misolida OTDR reflektogrammalarini amaliy qayta ishlash natijalari asosida liniya ishonchliligini baholash yondashuvi ishlab chiqildi. Reflektogrammalar MATLAB muhitida veyvlet asosida qayta ishlanib, liniya segmentlar bo'yicha tahlil qilindi, hodisalar va degradatsiya jarayonlari aniqlandi hamda shikastlanish joylari ± 5 m aniqlikda lokalizatsiya qilinishi ko'rsatildi. Natijada taklif etilgan yondashuv uzilishlarni aniqlash va tiklash vaqtini qisqartirish orqali TOALning umumiy ishonchlilik ko'rsatkichlarini oshirishini amaliy jihatdan tasdiqladi. Reflektogrammalarni qayta ishlash orqali TOALda veyvlet o'zgartirishlari tahlili yordamida hodisalarni aniqlash tadqiqot ishlarida tanlangan linyaning ekspluatatsiyasidagi 2011-2025 yillarda oralig'da olingan reflektogrammalar asosida amalga oshiriladi. Tadqiqotda dastlab ushbu reflektogrammalar MATLAB dasturida qayta ishlab dastlabki ma'lumotlarni shakllantirib olinadi. Filtrlangan reflektogrammalar 0–98,7 km masofa bo'yicha bir xil oynaga keltirilib, yillar bo'yicha ΔP farqlar chiziqli grafikda taqqoslandi va $\pm 0,02$ dB chegarasi bilan baholandi (7-rasm).



7-rasm. TOAL degradatsiyasi baholanishi

8-rasmda shikastlanish oynasida signalni qayta tiklash jarayoni natijalari batafsil ko'rsatilgan. Ushbu rasmda boshlang'ich reflektogramma signali hamda qayta ishlov berilgan signalning o'zaro taqqoslanishi keltiriladi. Boshlang'ich signal tarkibida turli xil tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga kelgan shovqin komponentlari mavjud bo'lib, ular foydali signalni tahlil qilishni murakkablashtiradi. Ayniqsa, reflektogrammadagi hodisa cho'qqilarining aniq ajralib ko'rinishi shikastlanish joyini aniqlash aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli signalni qayta ishlash bosqichi reflektometrik tahlilda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Rasmda keltirilgan natijalarga ko'ra, veyvlet asosidagi filtrlash usuli qo'llanilgandan so'ng signal tarkibidagi shovqin darajasi sezilarli ravishda kamayganligi kuzatiladi. Filtrlash jarayonida signalning foydali qismlari saqlab qolinganda keraksiz yuqori chastotali shovqin komponentlari susaytirilgan.




8-rasm. Shikastlanish oynasida signalni tiklash natijalari

Keyingi bosqicha Monte-Karlo modellash asosida algoritmnining barqarorligi statistik jihatdan baholandi. Turli shovqin darajalarida lokalizatsiya aniqligi taqsimoti hamda 95 % ishonch oralig'i natijalari keltirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, SKO asosidagi variantlarda lokalizatsiya xatosi ± 5 m talabidan oshmaydi. Bu taklif etilgan algoritmnining barqarorligi va amaliy qo'llashga yaroqliligini tasdiqlaydi.

TOALning ishonchligini baholashga mo'ljallangan ishlab chiqilgan model va algoritmlarning samaradorligi tajribaviy tadqiqotlar asosida tahlil qilindi. Turli


sharoitlarda klassik, veyvlet, rejim-dekompozitsiyasi hamda sun'iy intellektga asoslangan algoritmlar qiyosiy baholandi. Olingan natijalar sun'iy intellekt va taklif etilgan integrallashgan algoritmlarning shovqinli va uzoq masofali sharoitlarda barqarorligi yuqori ekanini ko'rsatdi hamda ularning real ekspluatatsiya sharoitlari uchun maqbulligini tasdiqladi.



9-rasm. Ishlab chiqilgan algoritmlarni mavjud algoritmlar bilan taqqoslash

Tadqiqotda ishlab chiqilgan matematik model va algoritmlar asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi TOALning ishonchlilik ko'rsatkichlari uchta ekspluatatsiya ssenariysi joriy holat, reflektogrammalarni qayta ishlash asosida va monitoring tizimini joriy etish sharoitida tadqiq qilindi.

10-rasmda tadqiq qilinayotgan TOALning turli ekspluatatsiya ssenariylari bo'yicha tayyorgarlik koeffitsientining o'zgarishi keltirilgan.




10-rasm Tadqiq qilinayotgan TOALning turli ekspluatatsiya ssenariylari bo'yicha tayyorgarlik koeffitsientining (K_t) o'zgarishi


Natijalarga ko'ra, joriy holatda K_t qiymati vaqt o'tishi bilan pasayish tendensiyasiga ega bo'lsa, reflektogrammalarni qayta ishlash asosida bu pasayish

sekinlashadi. Monitoring tizimini joriy etish sharoitida esa tayyorlik koeffitsienti eng yuqori va barqaror qiymatlarni namoyon etadi. Bu ishlab chiqilgan usul liniyaning ishchi holatda bo'lish ehtimolini oshirishini tasdiqlaydi.

O'rtacha qayta tiklash vaqtining kamayishi 11-rasmda, moddiy zarar miqdorining kamayishi esa 12-rasmda ko'rsatilgan. Joriy holatda tiklash vaqti 5,38 soatni tashkil etgan bo'lsa, reflektogrammalarni qayta ishlash natijasida 4,03 soatgacha kamaygan. Monitoring tizimini joriy etish orqali esa bu ko'rsatkich 2,69 soatgacha qisqargan. Bu tiklash vaqtining qariyb ikki baravar kamayishini bildiradi va ishlab chiqilgan algoritmnining amaliy samaradorligini ko'rsatadi.



11-rasm. Qayta tiklash vaqtining kamayishi



12-rasm. Moddiy zarar miqdorining kamayishi

Joriy sharoitda zarar miqdori 50,55 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, reflektogrammalarni qayta ishlash asosida 37,91 mln so'mgacha, monitoring tizimi joriy etilganda esa 25,27 mln so'mgacha kamaygan (12-rasm). Bu iqtisodiy samaradorlikning sezilarli darajada oshganini anglatadi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan matematik model va taklif etilgan algoritmlar TOALning tayyorlik koeffitsientini oshirish, qayta tiklash vaqtini qisqartirish hamda moddiy zarar miqdorini kamaytirish imkonini berishini ko'rsatdi. Olingan natijalar taklif etilgan usulning amaliy qo'llash uchun samarali ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

“Tolali optik aloqa liniyalarining ishonchliligini baholash modeli va algoritmlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)” mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. TOALning tuzilishi, asosiy parametr va xarakteristikalarini, ularga ta'sir etuvchi ekspluatatsion va iqlim omillari hamda mavjud ishonchlilikni baholash usullari tahlil qilindi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida haroratning keskin o'zgarishi, shamol, tuproq deformatsiyasi va boshqada omillar TOALsi elementlari degradatsiyasining asosiy sabablari ekanligi aniqlangan.

2. Tolali optik aloqa tarmoqlarini monitoring qilishning mavjud usullari, OTDR reflektometriya texnologiyasi hamda reflektogrammalarni qayta ishlash yondashuvlari tadqiq qilinib, reflektogrammalarni matematik qayta ishlashda veyvlet o'zgartirishlaridan foydalanish hodisalar va anomal nuqtalarni aniqlash

aniqligini oshirish imkonini berishi ko'rsatildi. TOALda hodisalar, anomal nuqtalar va shikastlanishlarni aniqlash uchun reflektogrammalarni qayta ishlashga asoslangan model ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan model asosida TOALning ekspluatatsion holatini reflektogrammalarni qayta ishlash yordamida baholash imkoniyati yaratildi hamda texnik holatni diagnostika qilish imkoniyati yaratildi.

3. Reflektogrammalarni qayta ishlashda hodisalar va shikastlanishlarni avtomatik aniqlash algoritmi ishlab chiqildi. Taklif etilgan algoritmnı klassik usullar bilan qiyosiy tahlil qilish natijasida hodisalar, anomal nuqtalar va shikastlanishlarni aniqlash samaradorligini 14 % ga oshirishga erishilgan.

4. Shikastlanishlarni lokalizatsiyalash aniqligini oshirish uchun veyvlet o'zgartirishlari va ko'p bosqichli aniqlashtirish usullariga asoslangan algoritmi ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shikastlanish joylarini lokalizatsiyalash aniqligini 10 % ga oshirilgan.

5. OTDR moduliga asoslangan monitoring tizimidan foydalanish natijasida shikastlanishlarni aniqlash va ularning joylashuvini topish vaqtini qisqartirish orqali tolali optik aloqa liniyalarining ekspluatatsion ishonchliligini oshirish usuli ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, taklif etilgan yondashuv yordamida ishonchlilik ko'rsatkichini 6 % ga oshirilgan.

6. Taklif etilgan model va algoritmlarni amaliyotga joriy etish natijalari ularni O'zMSSt 851:2026 "Telekommunikatsiyalar tarmoqlari. Magistral optik-tolali kabel. Yotqizish bo'yicha umumiy talablar", RH 45-254:2014 "Magistral va zonaichi telekommunikatsiya transport tarmoqlarida liniya-kabel inshootlarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari" hamda RH 45-091:2008 "O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tarmoqlarida avariya-tiklash ishlarini tashkil etish tartibi" me'yoriy hujjatlari doirasida qo'llash va takomillashtirish mumkinligini ko'rsatdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.09/2025.27.12.T.01.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
ИМЕНИ МУХАММАДА АЛЬ-ХОРАЗМИЙ**

**ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ ИМЕНИ МУХАММАДА АЛЬ-ХОРАЗМИЙ**

ТУРСЫМУРАТОВ САПАРНИЯЗ САЛАУАТОВИЧ

**МОДЕЛЬ И АЛГОРИТМЫ ОЦЕНКИ НАДЕЖНОСТИ ВОЛОКОННО-
ОПТИЧЕСКИХ ЛИНИЙ СВЯЗИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ
КАРАКАЛПАКСТАН)**

**05.04.01 – Телекоммуникационные и компьютерные системы, сети и устройства
телекоммуникаций. Распределение информации**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2025.4.PhD/T6199.

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада аль-Хоразмий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tuit.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Исаев Рихси Исаходжаевич кандидат технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Амирсаидов Улугбек Бабурович доктор технических наук, профессор Абдуллаев Миржамол Миркамилович доктор философий по техническим наукам, доцент
Ведущая организация:	Научно-исследовательский институт развития цифровых технологий и искусственного интеллекта

Защита диссертации состоится «3» октября 2026 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.09/2025.27.12.T.07.02 при Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада аль-Хоразмий (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108.) Тел.: (+99871) 238-64-15; e-mail: info@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий (регистрационный номер № 447). (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (+99871) 238-64-15).

Автореферат диссертации разослан «24» сентября 2026 года.
(протокол рассылки № 18 от «24» сентября 2026 г.).

Б.Ш. Махкамов

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук,
профессор

М.С. Саиткамоллов

Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук, доцент

К.А. Ташев

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор технических
наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире обеспечение надежности волоконно-оптических линий связи в процессе их проектирования, строительства и эксплуатации является одной из актуальных научных задач. Это обусловлено тем, что волоконно-оптические линии связи используются в глобальной телекоммуникационной инфраструктуре, а также в системах и сетях связи различных стран в качестве основной среды для высокоскоростной передачи больших объемов информации. Известно, что для волоконно-оптических линий связи, обеспечивающих высокоскоростной обмен информацией, коэффициент готовности, являющийся одним из основных показателей оценки надежности, должен быть не менее 0,999. Даже незначительное снижение данного показателя приводит к существенному ухудшению качества услуг связи. Исследования показывают, что снижение коэффициента готовности на 0,01–0,025 приводит к ухудшению показателей качества обслуживания на 8–20 %¹. В настоящее время отдельные элементы эксплуатируемых волоконно-оптических линий связи приближаются к предельным значениям нормативного срока службы, что приводит к снижению технической надежности и повышению вероятности возникновения отказов. В таких условиях научно-практическая оценка эксплуатационного состояния волоконно-оптических линий связи, оперативное выявление повреждений и комплексный анализ показателей надежности имеют стратегическое значение для обеспечения устойчивого функционирования телекоммуникационных систем.

В мире проводится ряд научных исследований, направленных на оценку надежности волоконно-оптических линий связи путем обработки статистических данных, накопленных в процессе эксплуатации, а также исходных данных, получаемых от систем мониторинга. Проводятся исследования, направленные на оценку эксплуатационных показателей волоконно-оптических линий связи с учетом климатических условий территории, ее геологических особенностей и эксплуатационных факторов. Для определения и оценки эксплуатационного состояния широко внедряются системы непрерывного мониторинга, методы диагностики и контроля. В частности, рефлектограммы, получаемые с помощью устройств импульсной оптической рефлектометрии, позволяют дистанционно выявлять дефекты волоконно-оптических линий связи и широко применяются на практике. Указанные обстоятельства свидетельствуют о том, что разработка моделей и алгоритмов, направленных на оперативное обнаружение повреждений в волоконно-оптических линиях связи, их точную локализацию и сокращение времени восстановления, является одной из актуальных научно-практических задач в области телекоммуникаций.

В Республике Узбекистан реализуется комплекс мер, направленных на строительство и модернизацию современных телекоммуникационных сетей, а также повышение пропускной способности сетей передачи данных. В условиях интенсивного развития цифровых технологий обеспечение устойчивости и надежности цифровой инфраструктуры является одной из

¹ <https://www.fcc.gov/communications-security-reliability-and-interoperability-council-ix>

приоритетных задач. В пункте 1 главы 2 Стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030», утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан № УП–6079 от 5 октября 2020 года, в качестве приоритетной задачи определено обеспечение и повышение надежности волоконно-оптических линий связи для их непрерывного функционирования, а также поставлена задача доведения общей протяженности волоконно-оптических линий связи до более чем 250 тыс. километров². Разработка моделей и алгоритмов оценки надежности волоконно-оптических линий связи имеет важное значение для повышения качества телекоммуникационных услуг.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени способствует реализации задач, предусмотренных Законом Республики Узбекистан № ЗРУ–1015 «О телекоммуникациях» от 27 декабря 2024 года, Указами Президента Республики Узбекистан № УП–6079 от 5 октября 2020 года «Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030” и мерах по ее эффективной реализации», № УП–60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 699 от 19 ноября 2021 года «О мерах по дальнейшему развитию телекоммуникационной инфраструктуры Республики Узбекистан», приказом Министерства цифровых технологий № 287-мх от 26 января 2026 года «Об утверждении Правил оказания телекоммуникационных услуг», а также другими нормативно-правовыми документами, принятыми в данной сфере.

